O‘ZBEKISTONDA YASHIL FISKAL SIYOSATINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI VA NAZARIY JIHATLARI

Madaminova M.
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida yashil fiskal siyosatining nazariy asoslari va normativ-huquqiy bazasining shakllanishi tahlil qilinadi. Yashil fiskal siyosatning iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashdagi roli, ikki tomonlama yutuq gipotezasi hamda 1992—2025-yillar davomida qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *yashil fiskal siyosat, ekologik soliqlar, qayta tiklanuvchi energiya, normativ-huquqiy baza, iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik.*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni bir vaqtda ta‘minlash davlat fiskal siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ta‘rifiga ko‘ra, fiskal siyosat hukumatning iqtisodiyotga ta‘sir etish uchun davlat xarajatlari va soliqlardan foydalanishidir [1, B. 1]. Gramkow va Anger-Kraavi (2018) ushbu ta‘rifni kengaytirib, yashil fiskal siyosatni soliqqa tortish va davlat xarajatlari kabi fiskal instrumentlar yordamida yashil texnologiyalar hamda barqaror amaliyotlarni iqtisodiyotga joriy etishga yo‘naltirilgan siyosat vositasi sifatida ta‘riflaydi [2, B. 214].

NAZARIY ASOS

Yashil fiskal siyosatning iqtisodiy asoslanishi ikki tomonlama yutuq (double dividend) gipotezasi orqali yoritiladi. Ushbu kontseptsiyani ilk bor Britaniyalik tadqiqotchi David Pearce (1991) ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, unga ko‘ra ekologik soliqlardan tushgan daromadlarni mavjud buzuvchi soliqlarni kamaytirishga yo‘naltirish iqtisodiy farovonlikni oshirish imkonini beradi [3, B. 940]. Amerikalik tadqiqotchi Karsten Jaeger (2012) esa yashil soliq tushumlarini qayta taqsimlash mexanizmi orqali bandlikning oshishi, soliq yukining pasayishi va iqtisodiy faollikning kuchayishi kabi qo‘shimcha yutuqlarga erishish mumkinligini asoslab bergan [4, B. 78].

Iqtisodiy o‘sishning ekologik oqibatlarini baholashda Robert Goodlandning (1995) ekologik barqarorlik ta‘rifi muhim ahamiyat kasb etadi: ekologik barqarorlik — bu tabiiy kapitalni saqlab qolishdir [5, B. 3]. O‘zbekistonlik olimlar B.Y. Xodiyev va Sh.Sh. Shodmonovlar (2017) ta‘kidlashicha, “iqtisodiy o‘sish bevosita yalpi ichki mahsulot mutlaq hajmining va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdorining o‘sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi” [6, B. 488].

O‘zbekistonda yashil fiskal siyosatning normativ-huquqiy rivojlanishi

O‘zbekistonda yashil fiskal siyosatning huquqiy asoslari 1992-yildan boshlab izchil shakllanib kelmoqda. 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan 754-XII-son «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonun tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar, atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari va resurslarni muhofaza

qilish uchun majburiy to‘lovlar kabi ekologik fiskal mexanizmlarning dastlabki huquqiy asosini belgilab berdi [7].

2019-yildan yashil fiskal siyosat yangi bosqichga o‘tdi. PQ-4477-sonli qaror bilan «2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi» tasdiqlanilib, energiya samaradorligi, QTE rivojlantirish va yashil moliyaviy mexanizmlar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi [8]. Shu yili qabul qilingan O‘RQ-539-sonli Qonun QTE sohasidagi soliq imtiyozlarining huquqiy asosini mustahkamladi [9]. PQ-4422-sonli qaror orqali esa 0,1 MVt va yuqori quvvatli QTE qurilmalarini o‘rnatganlarga 10 yilga mol-mulk va yer solig‘idan ozodlik, jismoniy shaxslarga xarid xarajatlarining 30 foizi miqdorida byudjet kompensatsiyasi joriy etildi [10].

2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksi suv resurslari solig‘i (XVII bo‘lim), yer qa'ri solig‘i (XVIII bo‘lim) va foydali qazilmalar renta solig‘i (XVIII¹ bo‘lim) kabi ekologik soliq mexanizmlarini tizimli belgilab qo‘ydi [11]. 2022-yilgi PQ-436-sonli qaror bilan esa issiqxona gazlari intensivligini 35 foizga kamaytirish, QTE ulushini 30 foizdan yuqoriga yetkazish va sanoatda energiya samaradorligini 20 foizga oshirish strategik maqsadlari hamda xalqaro donor tashkilotlar (UNDP, Jahon banki, ADB, EBRD va boshqalar) bilan institutsional hamkorlik rasmiylashtirildi [12].

2023-yildan yashil fiskal instrumentlar amaliyotga keng joriy etila boshlandi. PQ-57-sonli qaror doirasida «Quyoshli xonadon» dasturi orqali 37 ming xonadonga quyosh panellari o‘rnatish, 100 kVtgacha QTE qurilmalari uchun 3 yillik (saqlash tizimi bilan 10 yillik) soliq imtiyozlari va ortiqcha energiyaga 1 000 so‘m/kVts subsidiya belgilandi [13]. PF-81-sonli Farmon bilan «Tabiat resurslari vazirligi» «Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi» deb qayta nomlanib, sohadagi vakolatli organ sifatida mustahkamlandi [14]. 2024-yilda PQ-213-sonli qaror bilan issiqxona gazlari bo‘yicha milliy MRV tizimi joriy etildi [15]. 2025-yilgi PF-16-sonli Farmon bilan esa «Ekologiya yili» davlat dasturi doirasida yashil moliyalashtirish va ekologik barqarorlikka oid ustuvorliklar belgilab qo‘yildi [16].

Shunday qilib, O‘zbekistonda yashil fiskal siyosatning normativ-huquqiy bazasi 1992-yildan 2025-yilgacha ekologik to‘lovlardan yashil soliq imtiyozlarigacha, alohida hujjatlardan yaxlit strategik dasturlargacha, mahalliy siyosatdan xalqaro iqlim majburiyatlarigacha bo‘lgan yo‘nalishda izchil rivojlanib kelmoqda.

XULOSA

O‘zbekistonda yashil fiskal siyosatning normativ-huquqiy bazasi 1992-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda ekologik to‘lovlardan yashil soliq imtiyozlarigacha, alohida hujjatlardan yaxlit strategik dasturlargacha izchil rivojlanib kelmoqda. Ushbu evolyutsiya davlat fiskal siyosatini ikki tomonlama yutuq tamoyili asosida shakllantirishning milliy tajribasini namoyon etadi va xalqaro iqlim majburiyatlari bilan muvofiqlashtirish jarayoni jadallashib borayotganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Horton, M. & El-Ganainy, A. (2012). What is fiscal policy? Finance & Development. IMF.

2. Gramkow, C. & Anger-Kraavi, A. (2018). Could fiscal policies induce green innovation in developing countries? Climate Policy, 18(2). Taylor & Francis.

3. Pearce, D. (1991). The role of carbon taxes in adjusting to global warming. The Economic Journal, 101(407), 938–948.

4. Jaeger, W.K. (2012). The double dividend debate. In Milne, J. & Andersen, M. (Eds.), Handbook of Research on Environmental Taxation. Edward Elgar.

5. Goodland, R. (1995). The concept of environmental sustainability. Annual Review of Ecology and Systematics, 26(1), 1–24.

6. Xodiyev, B.Y., Shodmonov, Sh.Sh. (2017). Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Barkamol fayz media.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi. (1992, 9-dekabr). Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida: Qonun (№754-XII). https://lex.uz/docs/-107115

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 4-oktabr). 2019–2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: Prezident qarori (PQ-4477). https://lex.uz/docs/-4539502

9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2019, 21-may). Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida: Qonun (O‘RQ-539). https://lex.uz/uz/docs/-4346831

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 22-avgust). Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida: Prezident qarori (PQ-4422). https://lex.uz/uz/docs/-4486125

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2019, 30-dekabr). O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. https://lex.uz/docs/-4674902

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 2-dekabr). 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida: Prezident qarori (PQ-436). https://lex.uz/docs/-6303230

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 16-fevral). 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Prezident qarori (PQ-57). https://lex.uz/docs/-6385716

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 31-may). Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Prezident farmoni (PF-81). https://lex.uz/docs/-6519516

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, 5-iyun). O‘zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Prezident qarori (PQ-213). https://lex.uz/docs/-6956101

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, 30-yanvar). "O‘zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida: Prezident farmoni (PF-16). https://lex.uz/docs/-7369703